O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor,
A.Rasulov
2024-yil

13.00.07 – "TA'LIMDA MENEJMENT ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar uchun mutaxassislik fanlaridan kirish imtihoni

DASTURI

Namangan – 2024

Tuzuvchi: **p. f.n., dots. Q.O.Shodmanov**

Taqrizchilar: **p.f.n., dots. I.A.Rahimov**

p.f.n., dots. M.Nishonov

Dastur Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil____dagi ____-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma`qullangan

Pedagogika kafedrsi mudiri _____**I.A.Raximov**

Kelishildi:

Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik

kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i: **O.Imomov**

I. KIRISH

Ushbu dastur 13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi talabgorlar uchun mo'ljallangan bo'lib, oliy ta'limning Davlat ta`lim standartlari talablari asosida tuzilgan

Dasturda 70110103 – Ta'lim muassasalarining boshqaruvi magistratura mutaxassisligi o'quv rejalarining mutaxassislik fanlari blokida qayd etilgan fanlarning o'quv dasturlari asosida talabgorlar e'tibor qaratishi zarur bo'lgan talablar berilgan. Shuningdek, ushbu fanlar doirasida asosiy tushunchalar, atamalar va fanning asosiy mazmunini jamlagan mavzular tartiblangan. Xususan, fanlar doirasida vatanimiz xalqlarining eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunga qadar bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, eng qadimgi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma`naviy hayotini xolisona o`rganish hamda o`qitish metodologiyasi, mamlakatimiz modernizasiyasi va iqtisodiyoti tamoyillarining tarixiy- asoslari, jahon hamjamiyatga har tomonlama integratsiyalashuvini jadallashtirish kabi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzular o`rin olgan.

Dasturning maqsadi va vazifalari.

1.1. Dasturning maqsadi 13.00.07 – Ta'limda menejment ixtisosligidan talabgorlar uchun Boshqaruv pedagogikasi, Pedagogik menejment va Ta'lim menejmenti fanlaridan egallagan bilim, ko'nikma va malakalari asosida sinovdan o'tadi.

Dasturning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, uning o'ziga xos xususiyatlari, ular orasidagi bog'lanish, shaxsning turli faoliyat jarayonlarida o'zini namoyon qila olishi, shaxslararo munosabatlar jarayonidagi o'zini-o'z tarbiyalash masalalarini talabalar ongiga singdirishdan iborat.

Dasturni bayon qilish davomida O'zbekiston olimlari va ular yaratgan maktablarning ta'lim muassasalarini boshqaruviga oid masalalariga alohida e'tibor beriladi.

ASOSIY QISM

MUTAXASSISLIK FANLARI BO'YICHA TALABGORLAR BILIMIGA QO'YILADIGAN TALABLAR UCHUN ASOS BO'LGAN FANLAR VA MAVZULAR

Boshqaruv pedagogikasi fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot ob'ekti, metodlari.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, Uzluksiz ta'lim, Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar, shu jumladan falsafa, psixologiya fanlari bilan aloqasi. Pedagogik antropologiya. Shaxs, ta'lim va tarbiya. Xorijiy mamlakatlardagi tarbiyaga qisqacha izoh. Yagona pedagogik jarayon. Didaktika – ta'lim nazariyasi.

Boshqaruv metodlari. Ta'lim muassasasining ichki boshqaruvi. Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi. Ta'lim muassasasida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.

Ta'lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirish.

Ta'lim tashkiloti faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari. Boshqarish omillari. Boshqarish qoidalari.

Kadrlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usullari.

Menejment fani predmeti. Ta'limni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublari.

Ta'limning Xalqaro standartlashtirish tizimlari.

Ta'lim tizimini boshqarish omillari. Ta'lim tizimini nazorat qilish, hisob-kitob qilish.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Boshqarishning rejalik qoidasi.

Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari. Maqsad qo'yish va rejalashtirish-pedagogik menejmentning vazifasi.

Ta'lim tashkilotida innovatsion jarayonlarni boshqarish.

Boshqaruv"(Menejment)"tushunchasining mohiyati.

Boshqaruvchi shaxs-rahbar kompetentligi.

Ta'lim jarayonini boshqarish muammosi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli.

Ta'lim tashkilotlari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari. Rahbar kompetentligi komponentlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni qaysi davlat organi o'z zimmasiga oladi va uning vakolatlari.

Ta'lim menejmentining vazifalariga nimalar kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning asosiy funksiyalari.

Boshqaruv pedagogikasi, Pedagogik menejment va Ta'lim menejmenti fanlari bo'yicha dastur mazmuni

1. Boshqaruv pedagogikasi va pedagogik menejment

Boshqaruv metodlari. Ta'lim tashkilotining ichki boshqaruvi. Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi. Ta'lim tashkilotida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.

Ta'lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirish.

Ta'lim tashkiloti faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari. Boshqarish omillari. Boshqarish qoidalari.

Kadrlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usullari.

Menejment fani predmeti. Ta'limni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublari.

Ta'limning Xalqaro standartlashtirish tizimlari.

Ta'lim-tizimini boshqarish omillari. Ta'lim tizimini nazorat qilish, hisob-kitob qilish.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Boshqarishning rejalik qoidasi.

Ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari. Maqsad qo'yish va rejalashtirish-pedagogik menejmentning vazifasi.

Ta'lim tashkilotida innovatsion jarayonlarni boshqarish. Boshqaruv"(Menejment)"tushunchasining mohiyati.

Boshqaruvchi shaxs-rahbar kompetentligi.

Ta'lim jarayonini boshqarish muammosi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli.

Ta'lim tashkilotlari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari. Rahbar kompetentligi komponentlari.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni qaysi davlat organi o'z zimmasiga oladi va uning vakolatlari.

Ta'lim menejmentining vazifalariga nimalar kiradi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari. Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning asosiy funksiyalari.

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat. Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish. Professional ta'lim muassasalari qanday tashkil etiladi?

Pedagoglik kasbining jamiyatdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash tizimi va uning asosiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar.

2. Ta'lim menejmenti asoslari

Ta'lim menejmenti nazariyalarining rivojlanish bosqichlari. Boshqarish qonuniyatlari va tamoyillari. Ta'lim menejmenti tushunchasi. Umumfalsafiy qonunlar va pedagogik kategoriyalar boshqaruv metodologiyasining asosi ekanligi. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish sohalari: pedagogik jarayonni boshqarish; ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish; moliyaviy boshqarish; xodimlarni boshqarish. Boshqarish sohalari qonunlari va uning ahamiyati.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning asosiy tamoyillari: yakkaboshchilik va kollegiyalik; ilmiylik; rejalilik; boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirish; kadrlarni tanlash va joylashtirish; shaxsiy tashabbus; javobgarlik va tavakkalchilik.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishga tizimli-vaziyatli yondashuv.

Ta'lim tashkiloti va tashqi muhit. Tashkiliy-pedagogik maqsad va madaniyat: tayanch qadriyatlar, strategik vazifalar va qisqa muddatli rejalar. Ta'lim tashkiloti resurslari: tashkiliy-moddiy va insoniy.

Tizimlar to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi. Ta'lim tashkilotlari va tizimi haqida tushuncha.

Pedagogik jarayon (ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti) tashkiliy-metodik tizim sifatida va uning mohiyati.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishga tizimli va vaziyatli yondashuvlarning mohiyati.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarish funksiyalari.

Ta'lim tashkilotlari boshqaruv jarayonining mazmuni.

Ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni boshqarish, ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqarish va xodimlarni boshqarish funksiyalarining o'ziga xosligi.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning asosiy vazifalari: rejalashtirish; tartibga solish; tashkil etish; rag'batlantirish; nazorat va hisobga olish; undash. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning maxsus vazifalari.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi (bo'g'inlari, bosqichlari) va tuzilmalari (ko'p, uch va ikki bosqichli (bo'g'inli). Boshqaruvda vertikal va gorizontal aloqalar.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarish tashkiliy tuzilmasining asosiy turlari: chiziqli va funksional tuzilmalar. Boshqaruv tashkilotlari: yuqori, quyi va teng huquqli tashkilotlar.

Ta'lim tashkilotlarida jamoat boshqaruvi. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish usullari. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish usullari: iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik va xuquqiy.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy-farmoyishli usullari va ularning turlari: tashkiliy-barqarorlashtiruvchi (ma'muriy ta'sir), farmoyish (buyruq, farmoyish, ko'rsatma va h.k.) va intizom.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari va ularning turlari: ijtimoiy tartibga solish (nizomlar, shartnomalar, o'zaro majburiyatlar, xodimlarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy extiyojlarni qondirish va h.k.); psixologik (kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, mehnatni insoniylashtirish, malakali kadrlar tanlash va ularni o'qitish va x.k.lar).

Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish. Ta'lim tashkilotlari va tizimida boshqaruv qarorlarining ahamiyati. Qaror – muqobil tanlov ekanligi. Boshqaruv qarorlari va ularning turlari (rejalashtirish, faoliyat yuritishni tashkil etish, asoslash va nazoratga oid qarorlar).

Ta'lim tashkilotlarida menejerlik faoliyatini tashkil etish.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruvchi va boshqariluvchi kichik tizimlar. Ta'lim menejmentining asosiy yo'nalishlari: moddiy-texnik tizimni tartibga solish; ijtimoiy (kadrlar) tizimni boshqarish; makroergonomika muammolarini hal qilish.

Boshqaruvchi xodimlar – menejerlar (rahbarlar). Menejerlarning uch guruhi: yuqori; o'rta; quyi. Menejerlar mehnatini tashkil etish xususiyatlari: rejalashtirish; hisobga olish; baholash; rivojlantirish. Menejer – tashkilotchi, o'qituvchi, tarbiyachi, izlanuvchi, ma'muriyatchi sifatida. Boshqaruv apparati. Lavozim vazifalari.

Ta'lim tashkilotlari, tashkilotlari va tizimida boshqarish apparati mehnatini maqbullashtirishning ahamiyati (hujjatlar bilan ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish, qulay ish o'rinlari va boshqa shart-sharoitlarni yaratish). Ta'lim tashkilotlari va tizimida menejerning mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar.

Ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimida axborot va kommunikatsiya.

Boshqarish jarayoni – qarorlar qabul qilish maqsadida axborot to'plash, uzatish va qayta ishlash, buyruqlar ko'rinishida axborot berish va uni ijrochilarga yetkazishdan iborat ekanligi.

Ta'lim tashkilotlarini boshqaruv tizimida umumiy axborot turlari: tezkor, statistik, moliyaviy, iqtisodiy, hisob-kitob, ta'minot, kadrlar bo'yicha, pedagogik-texnologik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.

Ta'lim tashkilotlarida kelib chiqish manbasiga ko'ra (tashqi va ichki), yo'nalishiga ko'ra (boshlang'ich va boshqaruvchi), barqarorlik darajasiga ko'ra (barqaror, shartli-barqaror, o'zgaruvchan) axborotlar, ularning mohiyati.

Ta'lim tashkilotlarida axborotlarni ro'yxatga olish va saqlash vositalari.

Ta'lim tashkilotlarida oddiy va murakkab axborot tizimlari. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) va uning vazifalari: axborotni qabul

qilish; axborotni qayta ishlash; axborotni saqlash va yig'ish; boshqaruv tashkilotiga axborot berish; ijrochilarga buyruq uzatish.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyati. Ta'lim tashkilotlarini boshqaruv jarayonida axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyati. Boshqaruv madaniyati tushunchasi.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari: menejerlar madaniyati; boshqaruv jarayoni madaniyati; mehnat sharoiti madaniyati; xujjatlar yuritish madaniyati.

Menejer madaniyati komponentlari: menejer madaniyatining umumiy darajasi; boshqaruv ilmini o'zlashtirishi; boshqaruv san'atini egallashi; menejerning shaxsiy va ishbilarmonlik fazilatlari; menejerning boshqaruv uslubi.

Boshqaruv jarayoni madaniyati komponentlari: boshqaruvning zamonaviy texnologiyasi; boshqaruv mehnatini maqbul tashkil etish; boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish; tashrifchilarni qabul qilish, telefon orqali so'zlashish, majlislar o'tkazish.

Mehnat sharoiti madaniyati komponentlari: ish (o'quv-tarbiya) jarayoni madaniyati; ish o'rinlarini tashkil etish madaniyati; xizmat ko'rsatish madaniyati; jihozlash; shovqin.

Hujjatlar yuritish madaniyati komponentlari: hujjatlarni rasmiylashtirish; hujjatlarning xizmat qilish muddati; hujjatlardan foydalanishning qulayligi; hujjatlar bilan xizmat ko'rsatish ishonchliligi.

Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv uslubi. Boshqaruv uslublarining turlari. Menejer boshqaruv uslubining ijobiy va salbiy jihatlari.

Ta'lim tashkiloti ichki boshqaruvining funksiyalari. Ta'lim tashkiloti ichki boshqaruvida pedagogik tahlil. Maqsad qo'yish va rejalashtirish ta'lim tashkiloti menejmentining vazifasi sifatida. Ta'lim tashkiloti ichki nazorati.

Ta'lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligi. Samarali boshqaruv tushunchasi. Boshqaruv unumdorligiga majmuaviy yondashuv. Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv unumdorligi omillari: rejalashtirishning unumdorlikka ta'siri; tashkil etishning unumdorlikka ta'siri; inson omilining unumdorlikka ta'siri.

Ta'lim tashkilotlarida nizolarni boshqarish. Ta'lim tashkilotlari va tashkilotlaridagi nizolar – aniq shaxs yoki guruhlardan iborat bo'lgan ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasida murosa mavjud bo'lmaslik holati ekanligi. Nizolarning turlari va sabablari: shaxsning ichki nizosi; shaxs va guruh o'rtasidagi nizolar; shaxslar o'rtasidagi nizolar; guruhlar o'rtasidagi nizolar.

Ta'lim tashkilotlaridagi nizoli vaziyatlar: tarkibiy va shaxslar o'rtasidagi nizoli vaziyatlar. Nizolarni xal etish usullari: ishga bo'lgan talabni tushuntirish;

muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish choralaridan foydalanish; umumiy tashkiliy maqsadlar majmuini belgilash; rag'batlantirish tizimini qo'llash.

Ta'lim tashkilotlarida nizolarni bartaraf etishning shaxslararo uslublari: cheklanish; silliqlash; nuqtai nazarni zo'rlik bilan qabul qildirish; kelishuv. Stress holatlarini (ruxiy zarbani) boshqarish yo'llari.

Ta'lim tashkilotlarida marketing xizmatini boshqarish. Ta'lim sohasidagi marketing – mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab va extiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat ekanligi.

Marketing faoliyatining tarkibi: ta'lim xizmatlari bozorini o'rganish; davlat va jamiyat (iste'molchi) buyurtmasiga ko'ra bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar) tayyorlashni rejalashtirish, ta'lim xizmatlari bozorini egallash; reklamani amalga oshirish; bitiruvchilar (mutaxassis kadrlar)ni iste'molchiga yetkazib berish.

Ta'lim xizmatlari marketingi turlari: konversion marketing (talabni yaratish); rag'batlantiruvchi marketing (talabni rag'batlantirish); remarketing (talabni oshirish); sinxromarketing (talabni muvozanatlash); qo'llovchi marketing (talabni qo'llash); demarketing (talabni kamaytirish); qarshilik qiluvchi marketing (talabni tugatish).

Ta'lim xizmatlari marketingi strategiyasi, uning bosqichlari. Ta'lim xizmatlari bozorini egallashning mohiyati.

Ta'lim tizimini moliyalash. Ta'lim tizimini moliyalash mazmuni. Ta'lim tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'ining shakllanishi. Ta'lim tashkilotlarini byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish.

Talabgorlar uchun umumiy savollar

1. Boshqaruv"(MENEJMENT)"tushunchasining mohiyati.
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli.
3. Ta'lim tashkilotlari rahbar-xodimlariga qo'yiladigan asosiy talablar.
4. Ta`lim tashkiloti faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari.
5. Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi.
6. Boshqarishning rejalik qoidasi.
7. Ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari.
8. Maqsad qo'yish va rejalashtirish – pedagogik menejmentning vazifasi.
9. Ta'lim tashkilotida innovatsion jarayonlarni boshqarish.
10. Ta'limning Xalqaro standartlashtirish tizimlari.
11. Ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etishning asosiy shakllari.
12. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni qaysi davlat organi o'z zimmasiga oladi va uning vakolatlari.
13. Ta'lim menejmentining vazifalariga nimalar kiradi?
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlari.
16. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usuli nima?
17. Boshqarish vazifalarini yoriting.
18. Ta'lim tashkilotida ichki boshqaruv tizimida rahbarlik uslubi va madaniyati.
19. Tematik tahlil nima?
20. Ta'lim-tarbiya ishlarini ilmiy asosda tashkil qilishda rahbarga qanday vazifalar yuklatiladi?
21. Ichki nazoratning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
22. Statistik tahlil nima?
23. "Konferensiyalar"ni o'tkazishdan maqsad nima?
24. Pedagogik kengash qachon rejalashtiriladi va unga nimalar kiritiladi?
25. Ta'lim tashkilotining ichki boshqaruvi.
26. Ta'lim tashkilotida ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.
27. Ta'lim tashkiloti faoliyatini rejalashtirish.
28. Ta`lim tashkiloti faoliyatini boshqarishning maqsad va vazifalari.
29. Boshqarish omillari.
30. Ta'lim tashkilotlarida boshqarish qoidalari.

31. Kadrlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usullari.
32. Menejment fani predmeti.
33. Ta'limni boshqarishda iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-pedagogik va boshqa uslublardan foydalanish imkonini beradigan shakl va uslublari.
34. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarishga umumiy rahbarlikni qaysi davlat organi o'z zimmasiga oladi va uning vakolatlari.
35. Pedagogik jamoa – ta'lim muassasasini boshqarishning ob'ekti.
36. Ta'lim menejmenti nazariyalarining rivojlanish bosqichlari.
37. Ta'lim menejmenti tushunchasi.
38. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning asosiy tamoyillari: yakkaboshchilik va kollegiyalik; ilmiylik; rejalilik; boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirish; kadrlarni tanlash va joylashtirish; shaxsiy tashabbus; javobgarlik va tavakkalchilik.
39. Ta'lim tashkiloti va tashqi muhit.
40. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishga tizimli va vaziyatli yondashuvlarning mohiyati.
41. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish funksiyalari.
42. Ta'lim tashkilotlari boshqaruv jarayonining mazmuni.
43. Ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni boshqarish, ta'lim xizmatlari bozorini boshqarish, moliyaviy boshqarish va xodimlarni boshqarish funksiyalarining o'ziga xosligi.
44. Ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning asosiy vazifalari: rejalashtirish; tartibga solish; tashkil etish; rag'batlantirish; nazorat va hisobga olish; undash. Ta'lim muassasalarini boshqarishning maxsus vazifalari.
45. Ta'lim tashkilotlarini boshqarishning tashkiliy tuzilishi.
46. Ta'lim tashkilotlarida jamoat boshqaruvi.
47. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish. Ta'lim tashkilotlari va tizimida boshqaruv qarorlarining ahamiyati.
48. Ta'lim tashkilotlarida menejerlik faoliyatini tashkil etish.
49. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimida axborot va kommunikatsiya.
50. Ta'lim tashkilotlarini boshqaruv tizimida umumiy axborot turlari: tezkor, statistik, moliyaviy, iqtisodiy, hisob-kitob, ta'minot, kadrlar bo'yicha, pedagogik-texnologik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.
51. Ta'lim tashkilotlarida axborotlarni ro'yxatga olish va saqlash vositalari.
52. Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyati. Ta'lim tashkilotlarini boshqaruv jarayonida axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyati.

53. Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatining tarkibiy qismlari: menejerlar madaniyati; boshqaruv jarayoni madaniyati; mehnat sharoiti madaniyati; xujjatlar yuritish madaniyati.
54. Ta'lim tashkilotlarida boshqaruv uslubi. Boshqaruv uslublarining turlari.
55. Ta'lim tashkiloti ichki boshqaruvining funksiyalari.
56. Ta'lim tashkilotlari boshqaruv samaradorligi. Samarali boshqaruv tushunchasi.
57. Ta'lim tashkilotlarida nizolarni boshqarish.
58. Ta'lim tashkilotlaridagi nizoli vaziyatlar: tarkibiy va shaxslar o'rtasidagi nizoli vaziyatlar. Nizolarni xal etish usullari: ishga bo'lgan talabni tushuntirish; muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirish choralaridan foydalanish; umumiy tashkiliy maqsadlar majmuini belgilash; rag'batlantirish tizimini qo'llash.
59. Ta'lim tashkilotlarida marketing xizmatini boshqarish. Ta'lim sohasidagi marketing – mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo'lgan talab va extiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat ekanligi.
60. Ta'lim tizimini moliyalash. Ta'lim tizimini moliyalash mazmuni. Ta'lim tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'ining shakllanishi. Ta'lim tashkilotlarini byudjetdan tashqari faoliyatini boshqarish.

Talabgorlarning yozma ishlarni baholash mezonlari

13.00.07 – "Ta'limda menejment" ixtisosligi bo'yicha sinovlar yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabgorlar uchun taqdim etiladigan yozshma ish variantlari **4 ta savoldan** iborat bo'lib, har bir savolga berilgan javoblar **"0" baldan "25" balgacha** baholanadi. Yozma ish sinovida talabgorlar uchun har bir savolga berilgan ballar yig'indisi asosida, jami **100,0 ball to'plash** imkoniyati beriladi.

Yozshma ish variantidagi har bir savolga taqdim etilgan javoblar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Savolning mazmuni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, fandagi yangiliklar va ilmiy manbalar bilan bog'liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan, javoblarda mantiqan yaxlitlikka erishilgan, umumiy xulosalar chiqarilgan hamda imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa – **22–25 ball**.

2. Savolning mazmuni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, fandagi yangiliklar va ilmiy manbalar bilan bog'liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyati to'liq ochib berilgan hamda imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa – **18–21 ball**.

3. Savolning mazmuni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, fandagi yangiliklar va ilmiy manbalar bilan bog'liq holda aniq yoritilgan, mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmagan, ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan hamda imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa – **14–17 ball**.

4. Savolning mazmuni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, fandagi yangiliklar va ilmiy manbalar bilan bog'lanmagan, mazmun-mohiyati ochib berilmagan, ilmiy noaniqliklarga hamda imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – **7–13 ball**.

5. Savolning mazmun-mohiyati ochib berilmagan, fikrlar noaniq, keltirilgan ma'lumotlarda hatoliklar mavjud bo'lsa, hamda imlo va stilistik xatoliklarlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa – **0–6 ball**.

Tavsiya etilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent O'zbekiston, 2021 y
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent O'zbekiston, 2020 y.
6. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
7. Ochilov.M. Oily maktab pedagogikasi.T.: "Oqituvchi" 2007 y. –
8. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – Toshkent., "Voris-Nashriyot"., 2006.
9. Turg'unov S.T. Zamonaviy maktab rahbarlarining funktsional vazifalari. – Namangan: NVPQTMOI, 2004. – 34 b.
10. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. – 363 b.
11. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 196 b.
12. Turg'unov S.T. va boshqalar. Ta'lim muassasalarida boshqaruv. O'quv qo'llanma. T.: Fan – 2008 y.
13. Turg'unov S.T. va boshqalar.Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Fan, 2008 y.
14. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001.
15. Ishmuxammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar/ – T.: Fan va texnologiya, 2010.
16. Xasanboev J. Va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Fan-2006 y.

Internet manbalari

1. www. pedagog. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. google.uz.